



BOSHLANG'ICH SINFLARGA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA EKOLOGIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Djuraeva Nargis Narkulovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15738576>

ARTICLE INFO

Received: 11th June 2025

Accepted: 15th June 2025

Published: 23rd June 2025

KEYWORDS

dars, o'quvchi, ekologik
siyosat, tabiat, jamiyat,
madaniy meroslar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ekologik ta'limning mukammal tizimini ishlab chiqish va ta'lim tizimiga joriy etish, tabiatga yetadigan antropogen zararni kamaytirish, ekologik ta'limning asosiy negizlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishga asosiy e'tibor atrof-muhit muhofazasi, tabiatdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish kabi masalalar muhokama etiladi.

KIRISH

Ekologik ta'limning mukammal tizimini ishlab chiqish va ta'lim tizimiga joriy etish darkor. Ekologik ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, ya'ni umumta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan kichik maktab yoshidan yo'lga qo'yilsa, shunchalik ijobiy va samarali bo'ladi. Oila, jamiyat, ta'lim-tarbiya muassasalari va boshqa sohalarida ekologik tafakkur, ekologik ong va ekologik madaniyat uzluksiz tarzda shakllantirilib borilishi zarur. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'quvchilarga samarali o'qitish ekologik poydevor sifatida o'rnatilishini davr taqozo etmoqda [2].

Buning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi eng avvalo, ekologik tafakkur, ekologik ta'lim-tarbiya va ekologik madaniyat tushunchalarini o'quvchi yoshlarga singdira olishi lozim. Buning uchun hozirgi kunda tabiatga yetadigan antropogen ozorni kamaytirishda biolog, geograf, geolog, meteorolog kabi kasb egalarining hamkorligi juda zarurdir. Bu munosabatlar mohiyatini kichik yoshdagi o'quvchilar ongiga yetkaza olish, ularning tabiatga bo'lgan munosabatini to'g'ri ravishda amalga oshira bilishga o'rgatish ekologik ta'limning asosiy negizini tashkil qiladi. Ekologik bilimlarning ilmiy asoslari nazariy, amaliy bilimlar va mustaqil ishlar jarayonida tushuntiriladi [3].

ADABIYOTLAR SHARHI

Darhaqiqat, Prezident Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, yoshlarimiz haqli ravishda mamlakatimiz kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmalariga olishga qodirbo'lganligi, bugunimiz va ertamizni hal etuvchi kuchiga aylanib borayotganligi barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bu sohada olib borilayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishda dars muhim vosita hisoblanadi. Chunki o'quvchilar o'quv fanlarini o'rganishda o'zining ilmiy dunyoqarashini ma'lum darajada shakllantiradi. Mazkur jarayonda o'qituvchi o'z tafakkuri va faoliyati uyg'unligi orqali darsning samaradorlik darajasiga erishadi. O'qituvchi o'quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma, malaka va

kompetensiyalarini hisobga olgan holda o'quv materialini tizimli bayon qilishda xilma-xil usul va uslublardan foydalanadi [4].

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishga asosiy e'tibor atrof-muhit muhofazasi, tabiatdan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, atrof- muhitni yaxshilashga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan global bilimlarga ega bo'lishdan iborat.

Bugungi kunda barqaror rivojlanish, global va hududiy-ekologik muammolarni bilish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga ekologik tushunchalarning asosiy manbalaridan biri o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari, tabiatni, atrof-muhitni va madaniy meroslarni asrab-avaylash bilan bog'liq qadriyatlarni himoya qilish, saqlash, ularni ko'paytirish va kelajak avlodga yetkazish bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy mas'uliyat, vijdonlilik, burchga sadoqat, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar shakllanadi va ular takomillashtiriladi.

Bugungi kunda ekologik noxushliklar ko'pincha ekologik qonunlarni bilmaslik hamda ularga rioya etmaslik oqibatida kelib chiqadi. Shu sababdan, sog'lom tabiiy atrof-muhitni saqlash ko'p jihatdan o'quvchilarning ekologiya qonunchiligi to'g'risida qay darajada xabardorligi va unga amalda rioya etishligiga bog'liq bo'ladi [5].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativlik faoliyatini tashkil qilishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy xususiyati- o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iborat. O'quvchilar kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, devoriy gazetalar yaratadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa, bular orqali bilimi va ma'naviy dunyosi boyib boradi [6].

Har bir fan sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchilar o'z tadqiqoti jarayonida ob'ektni o'rganish uchun turli metodlardan foydalanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ekologik tarbiya va tabiat muhofazasi turli davrda turlicha izohlangan. Zeroki, inson faoliyatining tabiatga ta'siri va tabiatni muhofaza qilish zarurati, ekologik ta'lim-tabiiyaning tarixiy asoslari kishilik jamiyatining rivojlanish davrlarida o'z aksini topgan.

Ayonki, inson tabiatning bir bo'lagi, ya'ni tabiat insonni yaratgan. Lekin inson jisman va aqlan rivojlanishi bilan tabiatga ozor bera boshlagan. Texnika rivojlanishi o'z navbatida foydali qazilmalardan keng miqyosida foydalanishga olib keldi. Tarixdan ma'lumki, ba'zi rivojlangan mamlakatlar o'zga hududlarni o'z mustamlakalariga aylantirdi, bu yerlarning tabiiy boyliklaridan vahshiyona foydalandilar, o'rmonlar kesildi, o'simlik va hayvonlar qirildi, foydali qazilmalarning tiklanish yoki tiklanmasligi e'tiborga olinmasdan ishlatildi. Oqibatda, o'simlik va hayvonlarning ko'plab turlari yo'q bo'lib ketdi.

Bugungi kunda, ekologik tarbiya, ekologik tafakkur, ekologik madaniyat masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Aynan boshlang'ich sinflarda dars va darsdan tashqari vaqtlarda ekologik tarbiya muntazam takomillashtirilmoqda. Yani darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarni tabiat qo'yniga, tabiat muzeylariga sayohatga olib chiqib, shanbaliklar, suhbatlar, ertaliklar o'tkazish jarayonida ekologik tarbiya elementlarinig shakllantirilishi fikrimizni asoslaydi. Qolaversa, ekologik tarbiya berish maqsadida yangi avlod darsliklaridan kreativ mazmundagi ekologik bilimlarning o'rin olishi bu albatta o'quvchilarning ekologik bilim saviyasining oshishiga xizmat qiladi.

Bugungi kun boshlang'ich sinf o'quvchilari "Tabiiy fanlar"ni o'qish jarayonida asosiy ekologik tushunchalarga ega bo'ladilar. Ular tabiatni sevishga, o'simliklarni ardoqlashga, hayvonlarni parvarish qilishga o'rganadilar. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilarda ekologiyaga oid

tushunchalarni shakllantirish o'qituvchi hikoyasi hamda darsliklarda o'z ifodasini topgan mavzular orqali tushuntirilib boriladi.

Umuman o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishga doir mavzular "Tabiatshunoslik" darslariga kiritilgan. Shunga qo'shimcha tarzda aytish mumkinki, bu darsliklarda esa ekologik kreativlikni singdiruvchi mavzular va topshiriqlar kiritilsa, hamda milliy marosimlarimizdan foydalanib o'quvchilar ongiga yetkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunda milliy marosimlarda aks etgan (hikoya, rivoyat, topishmoq, hadislarda, hikmatlarda maqollar) ekologik tarbiyaga oid tushunchalar keltirilsa, o'quvchilarning bilim saviyasi yanada yuqori bo'ladi.

"Tabiiy fanlar" o'quvchilarning tafakkur, kuch va qobiliyatlarining o'sishiga, ko'rganlarini kuzata bilish va tahlil qilishlariga, to'g'ri, mantiqiy asoslangan xulosa va yakunlar yasashlariga har tomonlama yordam berishi bilan bir qatorda darslarda o'quvchilar umumtalim munosabatida bir qancha qimmatli ko'nikma va malakalarni turli manbalardan (atrof-muhit, tajriba, kitob, turli ko'rsatmalar) bilim ola bilishni, ba'zi eng oddiy asboblardan (kompas, termometr, flyugur...) dan foydalana bilishni, bazi maket, mulyaj, gerbariylarni tayyorlashni, o'z kuzatishlarini yozma va og'zaki qayd qila bilish hamda umumlashtirishi lozim bo'ladi.

"Tabiiy fanlar" atrof-muhitni muhofaza qilishdagi boshlang'ich bilim va ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi deya bejizga aytilmadik. Chunki bu darslarda o'quvchilarda tabiatni o'rganish, undan to'g'ri foydalanish, uni o'zgartirish va qo'riqlash kabi tushunchalarni hosil qilish kerak. O'quvchilarda mustaqil kuzatishlar olib borish, ixtiyoriy diqqat e'tibor va ishtiyoqning o'sishi uchun birinchidan, ularni tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilishga o'rgatish, ikkinchidan, kuzatishlar uchun malum maqsadlarni qo'yish, kuzatishlar olib borish rejasini belgilash hamda o'tkazilgan ishning u yoki bu o'quv vazifasini hal qilishdagi ahamiyatini ongiga yetkazish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni tatbiq etishning har bir bosqichida tabiiy-ilmiy bilimlarni jadal o'rgatishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalarini tanlash o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kreativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy- ilmiy bilimlarni takomillashtirishning aniq shakllarini tanlash talab etiladi.

Bunday shakllar sirasiga darsning an'anaviy va noan'anaviy turlari, sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini kiritish mumkin. Shu bilan bir qatorda, turli bayramlar: "Mehrjon", "Ziravorlar festivali", "Asal bayrami", "Qushlar bayrami", "Qushlar – qanotli do'stlarimiz", "Gullar bayrami" kabi tadbirlar ham o'quvchilarning tabiat va uni asrashga oid ijodiy (kreativlik) bilim va amaliy tajribalarini boyitishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, ushbu tadbirlar o'quvchilarda mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, ekologiyani asrab-avaylash, tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish va ularni qadrlash, ularning inson salomatligini saqlashdagi ahamiyatini anglashga oid bilimlarini boyitadi.

XULOSA VA MUNOZARA

O'quvchilarning atrof-muhitga bo'lgan nojo'ya munosabatiga ota-onalar munosabat bildirishlari va buning salbiy oqibatini tushuntirib, tabiiy muhit tozaligi, havoning musaffoligi, avvalambor bizning salomatligimiz, hayotimiz barqarorligini ta'minlashini astoydil uqtirishlari lozim. "Toza muhit bu sog'lom hayot muhiti" qoidasini oilaning turmush tarzi va dunyoqarashi, kundalik zaruriyati amaliy ko'nikmasi va hayotiy ehtiyojiga aylantirish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M. Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 488.

2. S.I. Qulmamatov Mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: ped.fan.nom. dis... – Guliston, GulDU, 2018. – B. 122.
3. G.A. Sultonova Kompleks ekskursiyalar vositasida boshlang'ich sinfo'quvchilarini ekologik tarbiyalash. Ped.fan.nom. dis... Toshkent, 2018. – B. 229.
4. T.A. Alimov, A.A. Rafikov Ekologik xatolik sabablari. – Toshkent: O'zbekiston, 1991. – B. 70.
5. X. Rahmatova O'quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida ekologik- gigienik tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari (VII-IX sinflar misolida): ped. f.n. diss... avtoref. – Toshkent, 2015. – B. 22.
6. X.B. Norbo'taev Boshlang'ich sinflarda fanlararo ekologik tarbiya. // Zamonaviy ta'lim. – 2018. – 11-son. – B. 53–58.

